

Qaysi jamoa qaysi o'rinda?

Ilmning chegarasi yo'q, lekin uni sinashning yo'l va usullari bisyor. Shulardan biri qiziqarli savollarga boy "Viktorina" bo'lib, talabalarning nechog'lik ilmga oshno ekanliklarini sinovdan o'tkazishga imkon tug'diradi.

"Yoshlar haftaligi"ning eng qiziqarli tanlovlaridan biri xuddi shu bo'ldi desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi. Chunki 50 dan ortiq savollarga javob berishda hech bir fakultet talabalari aslo bir-birlaridan qolishmadilar. Demak, natijalar quyidagi ko'rinishda bo'ldi.

4-o'rin "Yer resurslarini boshqarish" fakulteti, **3 ta 3-o'rin sohib** GIM, QXM, QSXET fakultetlari, **2-o'rin** "Gidrotexnika qurilishi" fakulteti va **2 ta 1-o'rin** "Suv xo'jaligini tashkil etish va boshqarish" hamda "Gidromelioratsiya" fakultetlari jamoalariga nasib etdi.

G'olib jamoalar "Yoshlar haftaligi" taqdirlash marosimida institut rahbariyati va Yoshlar ittifoqi hamda institut kasaba uyushmasi tomonidan esdalik sovg'alar bilan taqdirlanishdi.



Institut Matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov